

UDC 002:001.4

THE MAIN DIDACTIC PRINCIPLES OF TEACHING INFORMATICS

Ж.Ж. Атамурадов¹*Abstract*

This article discusses the didactic principles used in the teaching of computer science.

Keywords: principles, research, clarification, form of thinking, science, clarity.

Axborot kommunikatsion texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi va turli sohalarda joriy qilinishi, shubhasiz jamiyat taraqqiyotiga olib keladi. Informatika fanini o'rgatishda didaktika alohida ahamiyatga ega. Didaktikaning predmeti-ta'lim jarayoni va uning qonuniyatlaridir. Didaktika o'ziga xos tadqiqot sohasiga va tadqiqot predmetiga ega bo'lganidek, uning o'ziga oid tushunchalar tizimi ham mavjud. Har bir tushuncha ma'lum didaktik hodisaga taalluqli bo'lib, ular vositasida didaktik hodisalarning asosiy belgilari umumlashtiriladi. Demak, didaktik tushunchalar pedagogik fikrlash shakli, shuningdek, didaktik hodisalarni bilish, tadqiq qilish, bayon qilish hamda amaliyotda foydalanish vositalaridir.

Didaktik kategoriyalar - didaktikaning ayrim muhim tushunchalari didaktikaning kategoriyalari deb ataladi. Informatika kursining mazmuni va tuzilishini aniqlashda, shuningdek, uni o'qitish jarayonida umumiy didaktika (o'qitish nazariyasi) tomonidan ko'rsatilgan asosiy tamoyillarga rioya qilish zarur: **Ilmiylik** - ilmiylik o'rganilayotgan masalalarni yuzaki qarash yoki unga oid ma'lumotlar soni bilan emas, balki masalaning mohiyatiga chuqur kirib borish bilan belgilanadi. Pedagoglar ilmiylik tamoyilini amalga oshirishning bir qator qoidalarini ishlab chiqishdi: talabalarni informatikadagi yangiliklar bilan tizimli ravishda xabardor qilib borish; zamonaviy ilmiy atamalarni qo'llash; talabalarni kibernetika va informatika sohasidagi omillarning (N.Viner, A.Lebedev, P.Yershev, V.Qobulov va boshqalar) tarjimai holi, ularning fan rivojiga qo'shgan hissalarini bilan tanishtirish imkoniyatlaridan keng foydalanish; tarixiy materiallardan foydalanish.

Tizimli va izchil bayon qilish mavzuni ilmiy bayon qilish masalasi bilan uzviy bog'liqlikda turgan masala - bu mavzuni tizimli va izchil bayon qilishdir. Informatika o'quv predmeti bir-biriga bog'liq bo'lmagan faktlar va ta'riflar yig'indisidan emas, balki talabalar oldida aniq ketma-ketlikda ochib beriladigan bilimlar majmuasidan iborat bo'lishi lozim. Ushbu tamoyilda «Informatika» kursi turli mavzularining o'zaro aloqalarini ko'rsatuvchi sxema va klasterlardan foydalaniladi.

Tushunarlilik tamoyili ko'p yillik o'qitish amaliyoti tomonidan ishlab chiqilgan talablardan kelib chiqadi. Har hil ilmiy mazmuni bayon qilishda talabaning yoshi, rivojlanishi va mavjud vaqt qat'iy hisobga olinishi lozim.

Ko'rgazmalilik tamoyili boshqa fanlarni o'qitishdagi kabi, informatikani o'qitish jarayonida ham asosiy va muhim hisoblanadi. Ushbu tamoyil qadim zamonlardan beri qo'llanib kelinayotgan mashhur o'qitish tamoyillaridan biridir. Masala yechishda, takrorlashda, talabalardan so'rashda, xullas, barcha hollarda to'la ko'rgazmalilik bo'lishi lozim. Kompyuterdagi rasmlar bilan bir qatorda o'qitishda ko'rgazmalilik jadvallar, sxemalar, filmlar, multimediali videoproektorlar orqali namoyish etiladi.

Bilimlarni mustahkam o'zlashtirish tamoyilida quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Zamonaviy o'qitishda tafakkur xotiraga nisbatan yuqoridir.
2. Talabalar ongli ravishda o'zlashtirgan bilimlarigina eslab qolishlari kerak.
3. Yangi bilimlarni o'rganishga kirishishdan oldin, talabalarning ijobiy harakatlar bilan ta'minlash lozim.

¹Атамурадов Жамшид Жалилович – преподаватель кафедры информационных технологий, физико-математический факультет, Бухарский государственный университет, Узбекистан.

4. O'tganlarni takrorlash va mustahkamlashni shunday tashkil qilish kerakki, bunda talabalarning faqatgina xotirasini faollashtiribgina qolmasdan, balki ularning tafakkurini va his tuyg'ularini ham faollashtirish lozim.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishi amaliyot talabalarning informatikani bilishlarida asosiy manba bo'lib xizmat qilishi kerak. Ushbu holat hozirgi jamiyatda har bir kishining hayotida kompyuterlarni amaliyotda qo'llashlaridan kelib chiqadi.

Faollik informatika bo'yicha katta hajmli, murakkab va har hil materiallar talabalar tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishi mumkin, qachonki ular o'zlari ham faollik ko'rsatsalar.

O'qituvchi bilimlarni tanbeh holda bermasligi, balki talabalarning faol, yaxlit ish jarayonida bilimlar tizimini shakllantirishga erishishi lozim. Talabalarning faol, mustaqil ishlari mavjud bo'lgandagina, biz tashabbuskor kishilarni tarbiyalay olamiz. Bunga erishish uchun o'qituvchi talabalar bilan ishlashning faol (interaktiv, progressiv) shakl va usullaridan foydalanishi lozim. Talabalarda vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish maqsadida talabalarni qadimiy Sharqdagi al-Xorazmiy, Beruniy kabi buyuk olimlarning ilmiy natijalari haqidagi materiallar bilan tanishtirib borish nihoyatda foydalidir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldashev U.Yu., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. «Talqin» 2004. 187-b.
2. Ismoilova M.N. Ta'lim metodlariga qo'yiladigan talablar. Ученый XXI века. 2018 г. № 3-2 (38)

© Ж.Ж. Атамуратов, 2018